innovatsiya o'quv qo'llanma. 2019, 101 bet
4. Ильина Е.Н. Туроперейтинг: организация деятельности: Учебник. - М.: Финансы и статистика. 2005. - 480 с
5. Хамидов О.Х.Ўзбекистон экологик туризмни ривожлантиришни бошқариш такомиллаштириш: муоммо ва ечимлар / Хамидов О. Х., Шадиев Р. Х., Навруз-зода Б. Н., Асланова Д. Х. - Тошкент : Иқтисодиёт, 2016.
6. Safayeva S. R.Restoran biznesi marketingi : o'quv qo'llanma / Safayeva S. R., Xamidov O. X., Tolipova N., Abidova D. I. - Toshkent : Iqtisodiyot, 2016.
7. By Hans Mol Series edited by Terry Phillips "English for Tourism and Hospitality in Higher Education Studies, Course Book with audio CDs" Patricia Paskins 2010. 340 p.
8. Турковский М. Маркетинг гостиничных услуг: учеб.-метод. пособ.: пер. с польск. - М.: ФиС, 2014. - 296 с.

Axborot manbaalari

9. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
10. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
11. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi sayti.
12. www.UNWTO.org - BMTning rasmiy sayti.
13. www.e-unwto.org – BMT online kutubxonasi rasmiy sayti.
14. www.researchgate.net – Ilmiy tadqiqotlar rasmiy sayti.
15. https://www.cordonbleu.edu/london/hospitality-innovation-management-msc
16. https://www.gre.ac.uk/modules/modules?crse=1197&subj=CATE&term=205000
17. https://www.uel.ac.uk/postgraduate/courses/msc-innovation-sustainable-hospitality

7	Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2025-yil "____" _____ dagi "____"-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.
8	**Fan/modul uchun mas'ullar:** B. A. O'lmasova - SamDCHTI, "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi stajyor-o'qituvchisi.
9	**Taqrizchilar:** F.R. Xalimova – SamDChTI, Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi v.b. professori, DSc. Sh.U. Tashmatov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, dotsent, PhD.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"

Ro'yxatga olindi № BD-6 1010100-1.18

2025-yil

TURIZM VA MEHMONDO'STLIKDA INNOVATSIYALAR FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	1000000	- Xizmatlar
Ta'lim sohasi:	1010000	- Xizmat ko'rsatish sohasi
Ta'lim yo'nalishlari:	61010100	- Turizm va mehmondo'stlik (masofaviy)

Samarqand – 2025

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar
TMI1506	2027-2028	5	6
Fan/modul turi	**Ta'lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O'zbek		5

Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Turizm va mehmondo'stlikda innovatsiyalar.	72	108	180

I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga innovatsiya va tadbirkorlik tushunchalarini hamda ularning mehmondo'stlik sanoatida qanday uyg'unlashishini, atrof-muhitdagi o'zgarishlar. sohadagi muhim masalalar va tendensiyalar bilan birgalikda aniqlab berishni maqsad qiladi.Talabalarga bu rivojlanishlarni yaqindan tahlil qilishga, o'z ijodini ishga solib. noyob g'oyalar ishlab chiqish va ushbu innovatsiyalarni tadbirkorlik kontsepsiyasi/g'oyasi orqali amaliyotga tatbiq etish, yoki tajriba iqtisodiyotidagi so'nggi innovatsiyalarni tahlil va tanqid qilish qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Natijada, ushbu modul talabalarni natijaga yo'naltirilgan professionalga aylanish uchun zarur bo'lgan tushunchaviy va tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirishga undaydi — bu imkoniyatlarni aniqlash, mahsulot/xizmatlarni ishlab chiqish. strategik fikrlash, biznesni qayta modellash va tadbirkorlik g'oyalarini ishlab chiqish orqali biznesning uzoq umr ko'rishini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Fanning vazifasi - mehmondo'stlik sanoatida turli boshqaruv sohalarida faoliyat yuritish yoki o'z mehmondo'stlik biznesini tashkil etish va boshqarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni, mehmondo'stlik boshqaruvi fan sohasi bo'yicha chuqur bilim va tushunchalarni, mehmondo'stlik biznes muhiti haqida tushuncha va tadbirkorlik hamda innovatsiya jarayonlari borasida tasavvurga ega bo'lishni, sanoatga innovatsion yechimlar taklif qiladigan mehmondo'stlik tizimlarini loyihalash va rivojlantirish bo'yicha bilimlarni,nazariy va amaliy professional bilimlarni mehmondo'stlik bizneslarida qo'llay olish qobiliyatini shakllantirishga ko'maklashishdan iborat.

I. Asosiy qism (maruza mashg'ulotlar)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

O'qish moduli

1- Mavzu. Turizmda innovatsiyaning asosiy tushunchalari va ta'riflari.

Turizmda innovatsiyaning mohiyati va zarurati. Turizmdagi innovatsiyalarning asosiy turlari. Innovatsiyalarning hayotiylik davri va turizmda innovatsiyalar rivojlanishining asosiy bosqichlari. Turizm innovatsiyasi muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi omillar. Turizmdagi muvaffaqqiyatli innovatsiyalar.

2- Mavzu. Sayyohlik sanoatidagi ishlab chiqarish jarayonida innovatsiyalar.

Sayyohlik sanoati asoslari. Jahon sayyohlik bozoridagi global yo'nalishlarning tarixiy shakl va sabablari. Sayyohlik sanoati transmilliylik jarayoni jahon sayyohlik

bozoridagi zaminaviy yo'nalish sifatida

3- Mavzu. Texnologik jarayon sayyohlik biznesidagi innovatsiyalarning omili sifatida.

Avtomatlashtirish va virtuallashtirish yangi avlod sayyohlik korporatsiyalarining tavsifi sifatida. Zamonaviy sayyohlik biznesini avtomatlashtirish va virtuallashtirishning asosiy yo'nalishlari.

4- Mavzu. Tuzilmadagi innovatsiyalar.

Sayyohlik kompaniyasi tashkiliy tuzilmasi va personalni boshqarish korporativ tizimlarining zamonaviy o'zgarishi. Sayyohlik korporatsiyasi tashkiliy tuzilmasining innovatsion modeli. Tarmoq tuzilmasi sifatidagi sayyohlik korporatsiyasi. Sayyohlik sanoati doirasidagi strategik hamkorlik.

5- Mavzu. Turizmda innovatsiyalarni boshqarish.

Turizm biznesini boshqarishda innovatsiyalarning roli. Innovatsiyalarni boshqarishning asosiy tamoyillari. Innovatsiyalarni boshqarishda foydalaniladigan usullar va texnologiyalar. Innovatsion jamoalarni yaratish va tashkilotda innovatsion madaniyatni joriy etish.

6- Mavzu. Turizmda marketing innovatsiyalari.

Innovatsion marketing ta'rifi va uning turizmni rivojlantirishdagi roli. Innovatsion marketing strategiyalari va ularning xususiyatlari. Turizm sohasida innovatsiyalarni joriy etishda bozor va raqobat muhitini tahlil qilish. Turizmda innovatsion mahsulot va xizmatlarni ilgari surish yo'llari.

7- Mavzu. Turizmda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt innovatsion jarayon sifatida.

Sun'iy intelekt hamda raqamli texnologiyalar bilan tanishish va ularning turizm innovatsiyasidagi roli. Turizmda ijtimoiy media, internet-marketing va elektron tijoratdan foydalanish. Mobil qurilmalar uchun ilovalar va ularning turizmdagi roli. Virtual sayohatlar va ulardan turizmda foydalanish imkoniyatlari.

8- Mavzu. Intellektual mulk va uning turizmdagi o'rni.

Intelektual mulk tushunchasi va uning mohiyati. Innovatsion jarayonlarda intellektual mulk. Intellektual mulk huquqi. Intellektual mulkni himoyalash va qo'riqlash holatlarini o'rganish.Turizmda intellektual mulk.

9- Mavzu. Turizm innovatsiyasida franchayzing intellektual mulk sifatida.

Franchayzingning xususiyatlarini va uning zamonaviy biznesdagi rolini o'rganish. Intellektual mulk sifatida franchayzingning xatarlari va imkoniyatlarini baholash. Turizmda franchayzingning innovatsion strategiyasini ishlab chiqish. Franshizani to'g'ri tanlash.

10-Mavzu. Turizmning innovatsion shakllari (ekoturizm, gastronomik turizm va boshqalar).

Turizmning innovatsion shakllari. Ekoturizm ta'rifi va xususiyatlari. Gastronomik turizm haqida tushuncha va uning asosiy xususiyatlari. Tibbiy turizm, sport turizmi, kruiz turizmi, mistik turizm va boshqalar. Turizmning innovatsion shakllaridan foydalanish bo'yicha muvaffaqiyatli loyihalarga

misollar

11-Mavzu. Innovatsion turizm mahsulotlari va xizmatlarini yaratish.

Innovatsion turistik mahsulot va xizmatlar ta'rifi. Yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish g'oyalari va usullari. Yangi mahsulot va xizmatlar kontseptsiyasini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish. Biznes modelini yaratish va yangi mahsulot va xizmatlarni moliyalashtirish.

12-Mavzu. Turizm biznesini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar.

Turizm biznesini rivojlantirishda innovatsiyalarning roli. Turizmda marketing va reklamaga innovatsion yondashuvlar. Turizmda innovatsiyalarni boshqarish va loyihalarni boshqarish. Turizmda ma'lumotlar va tahlillardan foydalanish.

13-Mavzu. Mobil ilovalar va interaktiv xizmatlar orqali sayyohlar uchun qulayliklar yaratish.

Turistik mobil ilova turlari. Online xarita va navigator xizmatlari. Interaktiv til tarjimonlari. Mobil ilovalar orqali bron qilish va to'lov. Mijozlar uchun mobil ilovalarda feedback tizimi.

14-Mavzu. "Smart turizm" aqlli texnologiyalar yordamida sayohatni boshqarish.

Smart turizm konseptsiyasi. Aqlli infratuzilma va transport tizimlari. Smart-muzeylar va interaktiv eksponatlar. Sayyohlar uchun shaxsiylashtirilgan xizmatlar. Real vaqt rejimidagi axborot uzatish tizimlari.

15-Mavzu. IoT (Internet of things) texnologiyalarining mehmonxona va turistik xizmatardagi o'rni.

IoT haqida umumiy tushuncha. IoT qurilmalari orqali mehmon tajribasini oshirish. Uzoqdan nazorat qilish texnologiyalari.IoT asosida mehmonxona xizmatlarini avtomatlashtirish.

16-Mavzu. Turizm biznesini rivojlantirishga innovatsion yondashuvlar.

Turizm biznesini rivojlantirishda innovatsiyalarning roli. Turizmda marketing va reklamaga innovatsion yondashuvlar. Turizmda innovatsiyalarni boshqarish va loyihalarni boshqarish. Turizmda ma'lumotlar va tahlillardan foydalanish.

17-Mavzu. Sayyohlik bozorini davlat tomonidan tartibga solish sohasidagi innovatsiyalar.

Sayyohlik bozorini davlat tomonidan tartibga solish yo'nalishlari. Sayyohlik bozorining davlat tomonidan va o'z-o'zini tartibga solish sohasidagi innovatsiyalar.

18-Mavzu. Turizmda innovatsiyalarni davlat darajasida qo'llab-quvvatlash.

Turizmda innovatsiyalarni rivojlantirishda davlatning roli. Innovatsion faoliyatni tartibga solishning huquqiy asoslari. Turizmda innovatsiyalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash strategiyalari va dasturlari. Turizmda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari. Sanoati rivojlangan

davlatlarda innovatsion faoliyatini davlat tomonidan boshqarish.

III. Amaliy mashg 'ulot uchun tavsiya etiladigan mavzular.

1. Turizmdagi muvaffaqqiyatli innovatsiyalar.
2. Sayyohlik sanoatidagi ishlab chiqarish jarayonida innovatsiyalar.
3. Zamonaviy sayyohlik biznesini avtomatlashtirish va virtuallashtirishning asosiy yo'nalishlari.
4. Sayyohlik korporatsiyasi tashkiliy tuzilmasining innovatsion modeli.
5. Turizm biznesini boshqarishda innovatsiyalarning roli.
6. Innovatsion marketing ta'rifi ga uning turizmni rivojlantirishdagi roli.
7. Sun'iy intellekt hamda raqamli texnologiyalar bilan tanishish va ularning turizm innovatsiyasidagi roli.
8. Turizmda intellektual mulk tushunchasi.
9. Turizmda franchayzingning innovatsion strategiyasini ishlab chiqish.
10. Turizmning innovatsion shakllari.
11. Innovatsion turistik mahsulot va xizmatlar ta'rifi.
12. Turizm biznesini rivojlantirishda innovatsiyalarning o'rni.
13. Mobil ilovalar va interaktiv xizmatlar orqali sayyohlar uchun qulayliklar yaratish.
14. Smart turizm konseptsiyasi.
15. IoT texnologiyalarining mehmonxona va turistik xizmat tashkil etishdagi o'rni.
16. Turizmda marketing va reklamaga innovatsion yondashuvlar.
17. Sayyohlik bozorini davlat tomonidan tartibga solish yo'nalishlari.
18. Turizmda innovatsiyalarni rivojlantirishda davlatning roli.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. "Smart Mehmonxonalar" konsepsiyasi innovatsion biznes reja yaratish.

Bajarilish tartibi: Bozor tahlili qilish (raqobatchilar, mijozlar ehtiyoji). Smart texnologiyalar (AI, IoT, mobil ilovalar) tanlash va asoslash. Moliyaviy smeta tuzish. Marketing strategiyasini yozish. PDF ko'rinishida hisobot tayyorlash va taqdimot qilish.

2. Virtual Reallik (VR) orqali turistik yo'nalishlar mavzusida kichik loyiha tayyorlash.

Bajarilish tartibi: VR turizm konsepsiyasini o'rganish. VR yordamida yaratilgan turistik yo'nalishni loyihalash (masalan: Samarqand tarixiy joylari). Kontent turlari (3D video, audio gid) haqida yozish. PowerPoint yoki Canva orqali prezentatsiya tayyorlash.

3. AI (Sun'iy intellekt) yordamida mehmonxona xizmatlarini avtomatlashtirish mavzusida hisobot yozish.

Bajarilish tartibi: AI turlari va qo'llanilishi aniqlanadi. Har bir xizmatni qanday

AI bilan integratsiya qilish mumkinligini yozish. Foyda va kamchiliklarni baholash. Word hujjatida hisobot yozish.

4. "Smart Tourism" Aqlli Shaharlar va Turistik Texnologiyalar mavzusida taqdimot tayyorlash.

Bajarilish tartibi: Aqlli shaharlar haqida ma'lumot. IoT, AR/VR, mobil ilovalar roli. Dunyodagi davlatlar misolida (Singapore, Amsterdam). O'zbekiston uchun imkoniyatlarni ko'rsatish.

5. Virtual va Kengaytirilgan Reallik (VR/AR) orqali Turizm Tajribasi mavzusida slayd tayyorlash.

Bajarilish tartibi: VR/AR texnologiyalari haqida. Virtual muzeylar haqida ma'lumot to'plash, 3D turizm yo'nalishlari. Misollar orqali ko'rsatish (Louvre, Machu Picchu). VR O'zbekistonda tatbiq qilish imkoniyati.

6. Turizmdagi muvaffaqqiyatli innovatsiyalar mavzusida prezentatsiya tayyorlash.

Bajarilish tartibi: Dunyodagi 3 ta muvaffaqiyatli turistik innovatsiyani tanlang. Ularning mohiyati, joriy etilgan joyi, ta'siri haqida slaydlar tayyorlang. Har bir innovatsiyani statistik yoki vizual material bilan asoslang.

7. Zamonaviy sayyohlik biznesini avtomatlashtirish va virtuallashtirish yo'nalishlari mavzusida prezentatsiya tayyorlash.

Bajarilish tartibi: OTA (Online Travel Agencies), chatbotlar, AR/VR texnologiyalar haqida ma'lumot berishBitta real kompaniya misolida avtomatlashtirish jarayonini ko'rsatish.

8. Turizm biznesini boshqarishda innovatsiyalarning roli mavzusida maqola yozish.

Bajarilish tartibi: Boshqaruvda mavjud innovatsion usullar (ERP tizimlar, CRM, sun'iy intellekt). Misollar bilan asoslang (Booking.com, Expedia, Airbnb). Xulosa sifatida – O'zbekistondagi imkoniyatlar haqida fikr bildirish.

9. Innovatsion marketing ta'rifi va turizmni rivojlantirishdagi roli mavzusida taqdimot tayyorlash.

Bajarilish tartibi: Innovatsion marketing vositalarining turizm brendini yaratishdagi o'rnini tahlil qilish. Raqamli reklama, video bloglar, influencer marketing haqida ma'lumot berish. Biror mamlakat misolida marketing strategiyasini ko'rsatish. O'zbekistonda qanday joriy etish mumkinligini o'rganish.

10. Franchayzingning innovatsion strategiyasi mavzusida biznes-reja.

Bajarilish tartibi: Sayohat agentligi franchayzing modeli yaratish. Brend konsepti, litsenziya olish, biznesni kengaytirish, dastlabki sarmoya va daromad prognozini aniqlash.

11. Turizmning innovatsion shakllari mavzusida taqdimot tayyorlash.

Bajarilish tartibi: 5 ta innovatsion turizm shaklini tahlil qilish (agro, ekoturizm, VR-turizm, dark tourism, gastro-turizm). Ularga mos misollar keltirish, afzallik va kamchiliklarini aniqlash.

12. Innovatsion turistik mahsulot va xizmatlar mavzusida loyiha yarating.

Bajarilish tartibi: Yangi turistik mahsulot yoki xizmat g'oyasini ishlab chiqish. Mahsulotning tavsifi, maqsadli auditoriyani aniqlash. Qanday muammoni hal qiladi va qanday innovatsiyalarni o'z ichiga olishini ko'rsatib berish.

13. Mobil ilovalar va interaktiv xizmatlar mavzusida hisobot tayyorlash.

	Bajarilish tartibi: Sayyohlar uchun foydali 5 ta mobil ilovani tahlil qilish. Google Travel, Booking, TripIt, Maps.me, Visit Uzbekistan. Qanday funksiyalar mavjud va qaysi qo'shimchalar bilan takomillashtirish mumkinligini yozing. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular kafedra tomonidan tayyorlangan uslubiy ko'rsatma asosida bajariladi.
3	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Ushbu o'quv dasturini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar quyidagi bilim, ko'nikma va munosabatlarga ega bo'ladilar: - turizm va mehmondo'stlik industriyasida innovatsiya rolini tanqidiy tahlil qilish, ushbu sohada turli innovatsiya turlarini tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'ladi; - innovatsiya manbalarini baholash, innovatsiya jarayonlarini, biznes va turistik maskanlarda qanday ishlatilishini tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasi paydo bo'ladi; - effektiv biznes-rejalarni tayyorlash, innovatsiya va rejalashtirish kontseptsiyalarini amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalariga ega bo'ladi.
4	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • videodarsliklar; • videokonferensiyalar; • taqdimotlar tayyorlash; • tezkor savol-javoblar o'tkazish; • guruh bo'lib ishlash; • mavzularga doir online platformalarda (Moodle, Quizlet) test ishlash; • online guruhlarda loyilalar yaratish; • mantiqiy fikrlash • portfolio yaratish.
5	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:** Joriy darslarda faol va to'liq qatnashish, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarish, mustaqil ta'lim topshiriqlarini a'lo darajada bajarish va hisobot topshirish, yakuniy imtihonni muvaffaqiyatli topshirish.
6	**Asosiy adabiyotlar** 1. O.X.Xamidov. "Turizm va servisda innovatsiyalar". O'quv qo'llanma.Toshkent, 2012. 128 b. 2. Sh.S.Sayfutdinov., A.A. Baxromov. "Turizmda innovatsiya". – Toshkent savlat iqtisodiyot universiteti. Toshkent, 2023. – 190 b. **Qo'shimcha adabiyotlar** 3. A.N. Norchayev, M.T. Aliyeva, F.N. Xalimova Mehmonxona xo'jaligida